



KO'Z OLMASI VA UNING YORDAMCHI APPARATLARINING YAXSHI SIFATLI O'SMALARINI PATOMORFOLOGIK DIAGNOSTIKASINI TAKOMILLASHTIRISHI

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti "Patologik anatomiya, seksion
biopsiya" kafedrasida t.f.n, dotsenti **Abdullayev.B.S***

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti "Patologik anatomiya, seksion
biopsiya" kafedrasida magistri **Normurodova Hulkaroy Furqatjonovna***

Annotatsiya: Ko'z olmasi va uning yordamchi apparatlarida uchraydigan yaxshi sifatli o'smalar oftalmologiya va patologik anatomiya amaliyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada mazkur o'smalarning patomorfologik xususiyatlari, ularni aniqlashdagi diagnostik qiyinchiliklar hamda zamonaviy patomorfologik tekshiruv usullari yordamida diagnostikani takomillashtirish masalalari yoritilgan. Gistologik, immunogistokimyoviy va morfometrik usullarni kompleks qo'llash diagnostik aniqlikni oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ko'z olmasi, yordamchi apparatlar, yaxshi sifatli o'sma, patomorfologiya, gistologiya, immunogistokimyo.

Kirish. Ko'z olmasi va uning yordamchi apparatlari (qovoqlar, kon'yunktiva, ko'z yoshi bezlari, orbita to'qimalari) turli xil o'smalarning rivojlanishi uchun anatomik va gistologik jihatdan murakkab tuzilishga ega soha hisoblanadi. Ushbu hududlarda uchraydigan o'smalarning katta qismini yaxshi sifatli neoplaziyalar tashkil etadi.

Yaxshi sifatli o'smalar klinik jihatdan sekin o'sishi va atrof to'qimalarga cheklangan ta'siri bilan tavsiflansa-da, ayrim hollarda ular yomon sifatli o'smalarga o'xshash klinik va morfologik belgilar namoyon etadi. Shu sababli patomorfologik tekshiruvlar ko'z o'smalarini to'g'ri tashxislashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dolzarbligi: Bugungi kunda ko'z olmasi va uning yordamchi apparatlarining yaxshi sifatli o'smalari ko'z saratoni bilan kasallanish holatlari



sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Hozirda O'zbekiston hududida 1 yilda o'rtacha 65-70 nafar bolalarda birlamchi retinablastoma kasalligi aniqlanmoqda. Bu ko'rsatkich qo'shni davlatlarga qaraganda ancha ko'p. Ko'z ichidagi o'smalar bilan bemorlar guruhi, bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, tekshirilganlarning umumiy guruhining 11,8% ini tashkil etdi, ya'ni 100000 birlamchi bemordan 52 kishilarda uchrab, ayollar soni (60%), erkaklar (40%) tashkil qilmoqda

Tadqiqotning maqsadi Ko'z olmasi va uning yordamchi apparatlarini yaxshi sifatli o'smalarini patomorfologik diagnostikasini takomillashtirish usullarini ishlab chiqarish.

Tadqiqot uchun ko'z sohasida joylashgan yaxshi sifatli o'smalardan olingan biopsiya va operatsion materiallar o'rganildi. Patomorfologik tekshiruv quyidagi usullar asosida olib borildi:

gematoksilin-eozin bilan bo'yash orqali klassik gistologik tekshiruv;
maxsus bo'yash usullari (Van Gizon, PAS-reaksiya);
immunogistokimyoviy tekshiruvlar (sitokeratin, vimentin, S-100, CD31,)
hujayra va to'qima tuzilishini baholashda morfometrik tahlil.

Natijalar: O'rganilgan materiallar tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'z olmasi va uning yordamchi apparatlarida uchraydigan yaxshi sifatli o'smalar morfologik jihatdan xilma-xil bo'lib, ularning tuzilishi kelib chiqish to'qimasiga bog'liq holda farqlanadi. Eng ko'p uchraydigan o'smalar qatoriga papillomalar, gemangiomalar, nevuslar, adenomalar va fibromalar kiradi.

Xulosa. Ko'z olmasi va uning yordamchi apparatlarining yaxshi sifatli o'smalarini patomorfologik diagnostikasini takomillashtirish zamonaviy ilmiy yondashuvni talab etadi. Klassik gistologik usullarni immunogistokimyoviy va morfometrik tekshiruvlar bilan uyg'unlashtirish diagnostik aniqlikni oshiradi hamda klinik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). WHO Classification of Tumours of the Eye and Ocular Adnexa. Lyon: IARC Press, 2020.



2. Yanoff M., Duker J.S. Ophthalmology. 5th edition. Elsevier, 2019.
3. Elder D.E., Elenitsas R., Johnson B.L., Murphy G.F.
4. Lever's Histopathology of the Skin. 11th edition. Wolters Kluwer, 2015.
5. Kumar V., Abbas A.K., Aster J.C. Robbins and Cotran Pathologic Basis of Disease. 10th edition. Elsevier, 2021.
6. Font R.L., Croxatto J.O., Rao N.A. Tumors of the Eye and Ocular Adnexa. AFIP Atlas of Tumor Pathology, Washington, 2006.
7. Shields J.A., Shields C.L. Atlas of Intraocular Tumors. 2nd edition. Lippincott Williams & Wilkins, 2008.
8. Rosai J. Rosai and Ackerman's Surgical Pathology. 11th edition. Elsevier, 2018.
9. Weiss S.W., Goldblum J.R. Enzinger and Weiss's Soft Tissue Tumors. 6th edition. Elsevier, 2014.
10. Dabbs D.J. Diagnostic Immunohistochemistry. 5th edition. Elsevier, 2019.
11. Быков В.Л. Гистология, цитология и эмбриология. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2018.